IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
SPECIAL ISSUE, VOLUME 5, ISSUE 2, 2023

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING 1-KURS CHET ELLIK TALABALARIGA O'ZBEK TILINI O'QITISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Maxmudova Gulchexra Dilshadbekovna
Andijon davlat tibbiyot instituti, O`zbekiston

Annotatsiya
Mazkur maqolada tibbiyot oliygohining 1-bosqichida ta`lim olayotgan xorijlik talabalarga o`zbek tilini o`qitishning ayrim jihatlari, metodlari muhokama etiladi. Bunda asosan terminlarni o`qitishga urg`u beriladi.

Kalit so‘zlar
Tibbiyot, metod, o`qitish, chet ellik talaba, termin.

KIRISH

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik sohalarda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar va yangilanishlar jarayoni, avvalo, o‘zbek tili leksikasida o‘z aksini topmoqda. Bu esa, ayni paytda, jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda, yangi so‘z, tushuncha va terminlarning vujudga kelishini taqozo etmoqda. Shu bois o‘zbek tili terminologiyasining nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asosda chuqurroq o‘rganish muhim va jiddiy masalalardan biri bo‘lib qoldi. Ayniqsa xorilik talabalarga o`zbek tilini o`qitish jarayonida bu muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Tibbiyot sohasida termin muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa chet ellik talabalarga o`zbek tilidagi tibbiy terminlarni o`qitish o`ta dolzarb masaladir. Oddiy so‘zdan farqli ravishda terminning ma’nosi kontekstga bog‘liq bo‘lmaydi, ya’ni leksema muayyan sohada qo‘llanilar ekan, uning ayni ma’nosi saqlanib qolaveradi. Biroq, ko‘p ma’noli terminlarning aniq ma’nosini ajratib olish uchun kontekst zarur.

Terminlarni qo‘llashda tilimizda bir qancha muammolar ham mavjud [1]:

1. Nutq muallifi terminning tub ma’nosini to‘g‘ri anglab yetmaydi. Natijada, uni mantiqan to‘g‘ri kelmaydigan so‘zlar bilan biriktirib, jumla tuzadi.
2. Ba’zan muallif ongli ravishda mavjud terminlardan foydalanmasdan, omma uchun tushunarsiz – yangi terminlardan foydalanadi.
3. Ko‘pincha, tilni yaxshi bilmaslik, uning leksik-semantik, sintaktik imkoniyatlari hamda xususiyatlarini yaxshi tushunmaslik sababli nutqda terminlar mantiqan noto‘g‘ri qo‘llaniladi.
4. Tilda so‘z yasalishi qonun-qoidalarini yaxshi bilmaslik natijasida ham noto‘g‘ri terminlar yasash yoki ijod qilish kuzatiladi.

Demak, tilimizda shunday so‘zlar borki, ular alohida semantik maydon sifatida fan bilan, fan taraqqiyoti, undagi yangiliklar va o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq holda yuzaga keladi va yashaydi.

Bunday so‘zlar terminlar nomi bilan yuritilib, tegishli fan yoki soha uchun xizmat qiladi. Biror-bir fanni terminsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki fanning mavjudligi va rivojlanishi ma’lum ma’noda terminlar bilan bog‘liq. Termin fanning yashash va kurashish qurolidir.

O‘zbek tilining sohalarga oid terminologiyasini shakllantirish va boyitishda o‘zlashma so‘zlar muhim o‘rin egallaydi. Bu jarayon boshqa tillardan terminlarni aynan o‘zlashtirish yoki chet til terminlarini kalkalash orqali amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xalqaro terminelementlar asosida o‘zbek

tilida yangi leksik birliklar hosil qilish faollashdi. Ko‘pgina tillarda xalqaro terminelementlar sifatida e’tirof etilib, keng qo‘llanilayotgan ikki mingga yaqin terminelement, asosan, lotincha va yunoncha morfemalardan iborat. Ularning ba’zilari turli soha terminlarini hosil qilishda ishtirok etsa, ayrimlari muayyan sohalardagina termin yasaydi.

Boshqa tillar terminologiyasidagi kabi, o‘zbek tili terminologiyasida ham ilmiy-texnik tushunchalarni ifodalash uchun yuzlab xalqaro terminelementlardan foydalanib kelinmoqda. Xalqaro terminelementlarning asosiy qismi genetik jihatdan mustaqil so‘zlarni qisqartirishdan hosil qilingan, ular: avto-, agro-, aero-, bio-, makro-, mikro-, ultra- singari termin yasovchilar va -log, -logiya, -bus, -fob, -skop, - izm kabi o‘z semantikasiga ega bo‘lgan faol termin yasovchi morfemalardir. Biror soha yo‘qki, bunday morfemalar bilan termin yasalmasin [2].

Ta`kidlash lozimki, xorijlik talabalarga o`zbek tilini o`qitishda turli o`qitish uslublaridan foydalanish qo`l keladi. «Diskussiya» usulida mavzu to‘liq ochib berilsa, «kuchsiz halqa» usulida mavzu bo‘yicha olingan bilimlar mustaxkamlanadi.

O‘quvdiskussiyasi — muammoli o‘qitishning bir ko‘rinishi. U muammoli holatlar analizida qo‘llaniladi. Diskussiya jarayoniga barcha talabalarni jalb qilish maqsadida kooperativ o‘qitish metodidan foydalanish (o‘quv xamkorligi) kerak. Ushbu metodika bo‘yicha talabalar kichik guruxlarga bo‘lingan holda ma’lum bir muammoni o‘zaro kelishgan holda yechishga harakat kiladilar. Ushbu o‘quv xamkorligining asosiy g‘oyasi bilim oluvchilarni intellektual saloxiyat va xarakatlarini birlashtirgan holatda muammoli holat yechimini topishga yunaltirishdir. Talabalar guruhi o‘quv xamkorligiishi texnologiyasi kuyidagicha bulishi mumkin: - muammoning qo‘yilishi -kichik guruxlarga bo‘lish (mikroguruxlar 3-5 kishi), ulardagi vazifalar taqsimoti, uqituvchi diskussiyadan kutayotgan natijasi bilan tanishtirish. -kichik guruhlarda talabalar tomonidan muammoni yechimini aniklash. - muammoning yechimi bilan barchani tanishtirish. - diskussiyani davom ettirish va xulosalash. O‘qituvchi muhokamaning yakunida bildirilgan fikrlarni umumlashtirishi, talabalarning ishtiroklari darajasini ko‘rsatibo‘tishi mumkin. Ushbu metod, odatda, mashg‘ulotning boshlanishi yoki yakunida qo‘llaniladi, hajm jixatdan katta va murakkab nazariy ma’lumotlarni o‘ziga mujassamlashtirgan mavzularni keng qirraliyoritishda tavsiya qilinadi. Shuning uchun ushbu uslub amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda samarali bo‘lib hisoblansa, muayan shoshilinch holatda tezkor javob talab qiluvchi «kuchsiz halqa» usuli esa talabalarda shoshilinch holatlarda tez va aniq javob berish kobiliyatlarini oshiradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xullas, bugungi kunda tilimizdagi tibbiyot terminlarini to‘g‘ri qo‘llash va talqin qilish, ularning qo‘llanish doirasi hamda u bilan bog‘liq muammolar haqida tibbiyot oliygohlarining xorijlik talabalariga ma’lumotlar berish muhim ahamiyat kasb etadi. Terminologik tizim leksik birliklarga xos barcha xususiyatlarga egaligi bois ham bir butun tizim – sistema-struktura shaklida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Madvaliev M. Qo‘shma terminlarning xususiyatlari va ularni tartibga solish masalalari. // O‘zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasini tartibga solish prinsiplari. ─ Toshkent, 2011. – 186 b.
2. Mahkamov N. Terminologik tamoyillar va xalqaro termin-elementlar// “Xorijiy so‘z va terminlardan foydalanishda me’yor va milliy-assotsiativ fikrlash muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. ─ Toshkent, 2011. – 212 b.
3. Sibirskaya M.P. Kasbiy ta'lim: Pedagogik texnologiyalar. - Sankt-Peterburg, 2012 yil.
4. Kasb-hunar ta’limi pedagogikasi. // ostida. ed. V.A. Slastenina. - M.: Akademiya,

2014 yil.

5. Pedagogika fanlarini o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish (elektron resurs) htpp://ntfmfkonfz.ru

6. Slastenin V.. Isaev I va boshqalar Pedagogika: Darslik (elektron resurs) htpp://www.gumer.info

WORDLY
KNOWLEDGE